

**YETIM VA OTA-ONA
QARAMOG'ISIZ
BOLALARNING UMUMIY
PSIXOLOGIK TAVSIFI
mavzusida tayyorlagan**

MUSTAQIL ISHI

Tayyorlagan: 3 z N.Allamberganova

Reja:

1. Psixologning ota-ona qaramog`isiz qolgan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari bilan olib boradigan ishlari.
2. SOS-bolalar qishlog`i. «Tarbiyachi-ona»ning professiogrammasi. «Ona» etuk shaxs.
3. Turli ijtimoiy qatlam vakillariga psixologik xizmat ko`rsatishning o`ziga xos xususiyatlari.



Psixologning
mehribonlik uylarida olib
boradigan ishlarining o`ziga
xosligi 1987 yildan boshlab
bolalar uylariga (hozirgi
mehribonlik uylari) va
maktab internatlarda
psixolog shtati joriy etildi

Ushbu hodisa oiladan tashqarida tarbiyalanayotgan bolalarning psixik rivojlanishi uchun maxsus psixologik yordam zarurligini tan olishni anglatadi.

Mehribonlik uylari yoki maktab internatlardagi psixolog ishining asosiy yo`nalishlari, printsip va metodlari ko`p jihatdan oddiy maktabdagiga o`xshash bo`ladi.

Biroq shu bilan birga ushbu muassasalardagi psixologlar ishi o`ziga xosliklarga ham ega.

Bu o`ziga xoslik birinchidan, bunday tip muassasalardagi ta`lim tarbiya jarayonining o`ziga xosligi: ikkinchidan bolalarning psixik rivojlanishidagi o`ziga xoslik tufayli kelib chiqadi.


Shu narsa ma`lumki, ilk bolalik davridanoq (1-3 yosh) internat tipidagi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar bir qancha psixologik xususiyatlari bilan oilada tarbiyalanuvchi bolalardan farqlanadilar: ba`zi xususiyatlarda ushbu masalalarda tarbiyalanuvchi bolalar oddiy maktabdagi bolalar bilan barobar va hatto, ulardan ustunroq bo`lsa, ayrim xususiyatlari bilan ulardan hatto o`zidan kichik yoshdagi o`quvchilardan ham orqada qoladilar. Afsuski, bunday holat butun maktab yoshi davrida saqlanib qoladi.



Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, psixologik rivojlanishda orqada qolish ancha vaqtli, maktabgacha yosh davridayoq vujudga keladi. Uni bartaraf etish ishi maxsus muassasalarda etarli darajada olib borilmasligi oqibatida ular keyingi yosh bosqichlarida yanada chuqurlashib ketadi.

Mehribonlik uylari yoki maktab-internatlarda ishlay boshlar ekan, psixolog me`yoriy hujjatlarda ko`rsatilganidek, quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi: ota-onalar qaramog`isiz qolgan bolalar bilan mehribonlik uylari hamda internat tipidagi muassasalarda olib boriladigan psixolog ishi ushbu muassasalar tarbiyalanuvchilarining psixologik jihatdan to`laqonli rivojlanishini ta`minlash, shaxs sifatida va intellektual rivojlanish xususiyatlarini, ta`lim tarbiya jarayonidagi buzilishlarning psixologik sabablarini diagnostika qilish va bunday buzilishlarni bartaraf etish uchun profilaktik tadbirlar o`tkazishga yo`naltirishi kerak.

Mehribonlik uyi psixologining ish rejasi va uning ishi.




Internat tipidagi bolalar tashkilotlaridagi psixologik xizmatlar quyidagicha belgilanadi:

1. Bolalarning to'la qonli rivojlanishini ta'minlash, ularni yoshiga ahamiyat beriladi. Tarbiyalanuvchilarning rivojlanish qonuniyatlari, qobiliyatlarini shakllantirish.
2. Har bir tarbiyalanuvchilarga individual yondashish.
3. Tarbiyalanuvchini mustaqil hayotga tayyorlash alohida ishlar olib borish.
4. Tarbiyalanuvchilarni intellektual shaxs rivojlanishi va orqada qolishini oldini olish.

Psixolog ishini quyidagi yo`nalish bo'yicha olib boradi:

1. Psixologik-profilaktik ishlar. Ushbu yo`nalish o`z vaqtida bolalarni intellektual rivojlanishida chetga chiqish, buzilishlarni oldini olish, to`la qonli rivojlanishiga har bir yoshga qarab sharoitlar yaratish.



Profilaktik ishlarni pedagogik jamoalar bilan birga ish olib boradi. Psixologik-profilaktik ishlarda psixolog quyidagi tadbirlarni o`tkazadi:

A) bolalar tashkilotiga kelgan bolalarni bir bolalar tashkilotidan boshqasiga o`tganda, uydan maktabgacha bolalar uyigacha va maktabgacha yoki maktab internatiga o`tganda ushbu bolalarni turli tekshirishni olib boradi. Har bir bolalarning individual ishlarini olib boriladi.

B) pedagogik konsiliumlarni tashkil qiladi. Og`ir yoki noaniq kasalliklarni aniqlash va ularni davolash choralarini belgilash uchun chaqiriladigan vrachlar kengashi.





2. Diagnostik ish.



Bu yo`nalish turli tarbiyalanuvchilarning bolalar tashkilotiga kelgan kunidan boshlab chuqurlashtirilgan turli pedagogik tekshirishlarni aniqlaydi. Har bir bolaning individual rivojlanishiga ahamiyat beradi va bolalarni tarbiyasi, o`qishi buzilish sabablarini aniqlaydi.

A. bolalar tashkilotida pedagogik jamoa a`zolarini va ma`muriyatga bolalarning ta`lim va tarbiya muammolari bo`yicha konsul`tatsiya beradi.




B) har bir tarbiyalanuvchilar bilan individual va guruhliy maslahatlar beradi. Ushbu maslahatlar o`qish, rivojlanish, o`zini-o`zi kuzatish, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlari muammolari bo`yicha belgilanadi.



V) internat tipidagi bolalar tashkilotlarida pedagogik jamoa a`zolarini psixologik madaniyatini ko`tarilishga olib keladi.



Psixologik xizmat bolalar uylaridagi va maktab internatlaridagi etim bolalar va ota onasiz, qarovsiz bo`lgan bolalar to`la qonli ruhiy rivojlanishiga, ularning shaxsiy intellektual rivojlanishiga, o`qishi va tarbiyasiga qaratilgan bo`lib, ularning profilaktikasi bilan shug`ullanadi va shunday buzilishlarning oldini oladi.



1. Psixolog o`zining ijodini aniq tashkilotlarda internat tipidagi tashkilotlarda har bir tashkilotning sharoitlariga, nizomiga ko`ra ish olib boradi.

2. Psixolog barcha muammolar echimiga avvalam bor tarbiyalanuvchi qiziqishlari va uning har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga qaratilgan.

3. Psixolog o`zining ijodini pedagogik jamoa bilan va bolalar uyi yoki maktab internati ma`muriyati bilan chambarchas bog`laydi.


- Bunda psixologning bolalar uylaridagi va maktab internatlaridagi vazifasi ko`proq oddiy maktabdagi vazifaga o`xshaydi.



Bunda psixologdan o`ta ajoyib, sezgirlik qobiliyatini talab etiladi. U o`z xatti-harakatlari bilan boshqalarga o`rnak bo`ladi.



1987 yil bolalar uylari va maktab internatlarida psixolog vazifasi joriy etildi. Bu vazifaning joriy etilishi ota-onasiz qolgan bolalar uchun o`ziga xos psixologik yordam kerak.



Maktab ta`limiga tayyorgarlik


Maktabning birinchi sinfiga kelgan etim bolalar va otasonali bolalar tarbiyalashda quyidagilarga e`tibor beriladi.

- Odatda maktabga maktabgacha ta'lim bolalar uyidan kelgan bolalar maktabda bilim olishga boshqa bolalarga nisbatan yaxshiroq tayyor ekanligi ko'rinadi.
- Ular harflarni bilishmaydi, hatto ba'zilar bo'g'inlab o'qishni bilmaydi. 10 gacha sanashadi. Bu bolalar maktabda bilim olishga tayyorgarliklari yaxshi ekanligini ko'rsata olishadi. Ular o'qituvchini bergan vazifalarini bajarib kelishga masuliyat bilan qarashadi. Maktab internatda o'qigan bolalar atrofdagi narsalarni bilishga yaqinroq anglashga qobiliyati mavjud. Tajribalar shuni ko'rsatadiki bolalar uylarida tarbiya olgan bolalar kattalarga nisbatan bo'lgan yaxshi muomalalari va munosabatlari bilan boshqalardan ajralib turishadi va bu orqali katta muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan bolalar o'tmish va kelajakdan to'g'ri xulosa chiqargan holda keyingi hayotlariga munosib poydevor qo'ya olishadi.

**O`zligini
anglash.
O`ziga bo`lgan
munosabat.**



Bolalar uyida tarbiyalangan bolalarda “men o`zim” degan tushunchani anglash o`ziga xos tarzda kechadi. O`ziga bo`lgan munosabat bolaning aqliga qarab, uning atrof haqidagi bilimlari bilan bog`liq holda qatnashadi. Mana hozir bolalar uyida yashovchi bolalarni o`ziga bo`lgan munosabatlarida farqlarni ko`rib chiqamiz.





Atrofdagilarga bo`lgan munosabat
muomala kelajak hayotga
bolaning o`z yo`lini topishida katta
axamiyatga ega.

Bunda bolalar har
qanday qiyin
vaziyatlarda yoki
o`zi haq bo`lib
turgan holatlarda
o`z haqqini talab
qilishi mumkin.

Shuning uchun
bolalar uylaridagi
o`qituvchi va turli
bolalarni
yoshlikdanoq
bunga o`rgatish
uchun ijobiy
ishlarni amalga
oshirmoqda.

Zero, bu ularning bosh vazifasi
bo`lishi bilan birgalikda, ularni
majburiyati hamdir. Shuning uchun
bolalar uylarida va maktab
iternatlarida o`ziga xos uchrashuvlar
tashkil qilinmoqda.



Mehribonlik uylari psixologining shaxsiy fazilatlari





Mehribonlik uylari
shunday tarbiyaviy
muassasadir-ki, ularda
ishlaydigan psixolog chuqur
bilimlar bilan bir qatorda
ma`lum bir shaxsiy sifatlari
ancha rivojlangan bo`lmog`i
lozim.
Bunday xususiyatlar qatorida
quyidagilar asosiy o`rin tutadi:

1. Bolani sevish.


2. Odamlarga
bo`lgan qiziqish.

3. Psixologik
muvozanatni
saqlay olish.

4. Qiyinchiliklarga
bardosh berish.

5. Jamiyatda
yashashni, nimanidir
olib, nimanidir
berishni bilish.

6. O`rganishni
bilish.



7. Realizm,
hamma narsaga
reallik nuqtai
nazaridan qarash.

8. Bolalarga
yoqishni bilish.

9. O`z-o`zini
yaxshi anglash va
his etish.

12. Yaxshi
salomatlikka ega
bo`lish.


11. Muloqatchan
bo`lish.

10. Ichki kuch-
quvvatga ega
bo`lish.

13. Optimist va
hazilkash bo`lish.



Ota-onasi mehridan
mahrum bo'lgan
bolalar bilan ishlashga
kirishishdan oldin
psixolog o'zidan ana
shu sifatlarni qidirib
ko'rmog'i lozim. Topsa
- yaxshi! Topolmasa-
chi? Unda izlansiz.
Albatta, ota-onaning
chin mehriga bo'lgan
chanqoqni hech
qanday sun'iy yo'l
bilan qondirib
bo'lmaydi. Psixolog esa
bolalarning psixologik
jihatdan normal
rivojlanishini
ta'minlashi kerak.





Turli tuman bolalar
muassasalarida psixolog
olib boradigan ishlarning
mazmuni ularga xos
xususiyatlarning qisqa
analizi shuni tasdiqlaydiki,
haqiqatdan ham psixolog
faoliyati muassasa turiga
ko`ra farqlanadi.

2. SOS-bolalar qishlog`i. «Tarbiyachi-ona»ning professiogrammasi. «Ona» etuk shaxs

SOS - bolalar qishloqchasi - bu etim qolgan yoki ota-ona qarovisiz qolgan bolalar bilan ishlashning o`ziga xos usuli.

Bu usulga avstriyalik pedagog German Gmayner asos solgan. Bugungi kunda u dunyoning 124 mamlakatida keng qo`llanib kelmoqda.



SOS- bolalar qishloqchasi bir necha kottej-uylardan iborat.
Ularning har birida «ona» va 6-8 ta bola yashaydi.



Bu bolalar yoki ota-onasidan etim qolgan, yoki ularning ota-onasi
ota-onalik huquqidan mahrum etilgan.



Qishloqda hech kim ulardan haqiqiy hayotlarini va ularga
«onalik» qilayotgan odam aslida onalari emasligini yashirmaydi.



Bolalar qishloqchasidagi alohida uylarda onalarning yordamchilari
- «xolalari» ham yashaydi.



Ular dam olish kunlari «ona» kasal bo`lib qolganda, yoki biror ish
bilan uydan ketganda «ona» ning o`rnini bosadilar.

Qishloqchani
direktor boshqaradi.
U qishloqchadagi
alohida uyda oilasi
bilan birga yashaydi.
Direktorlik
vazifasidan tashqari
u qishloqchadagi
barcha bolalarga ota
va erkak kishining
namunasidir.



Albatta,
qishloqchada boshqa
erkak kishilar -
direktor
o`rinbosari, usta,
haydovchi,
xavfsizlikni
ta`minlash xodimi
ham mavjud.



Shu bilan birga
qishloqchanning
faoliyat ko`rsatishida
psixologning ishiga
alohida e`tibor
beriladi. U ham
bolalarga, ham
«ona» larga, ham
xodimlarga
psixologik yordam
ko`rsatadi.

- Bolalar shaharchasi direktori jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shuningdek sudlarda tarbiyalanuvchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan qonuniy vakil hisoblanadi.
- Direktor, agar vasiylik va homiylik organi tomonidan ma`muriyat va bolalarning manfaatlari o`rtasida qarama-qarshilik mavjudligi aniqlansa, bolalarning manfaatlarini ifodalashga haqli emas.
- Ular o`rtasida kelishmovchiliklar bo`lgan taqdirda vasiylik va homiylik organi boshqa vakilni tayinlashi shart.

Bolalar shaharchasi oilalarida tarbiyachilar
O`zbekiston Respublikasining 30 yoshga to`lgan,
biroq 55 yoshdan katta bo`lmagan fuqarolari —
yolg`iz ayollar yoki farzandsiz er-xotinlar bo`lishi
mumkin.

Tegishli ma`lumotga ega bo`lgan shaxslarga
ustunlik beriladi.

- 
- Tarbiyachi bolalar shaharchasi oilasi boshlig`i hisoblanadi. U O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda tanlov asosida ishga qabul qilinadi. Xalq ta`limi vazirligi tarbiyachilarning malaka tavsiflarini ishlab chiqadi va belgilaydi.
 - Tanlashda oliy yoki o`rta maxsus pedagogik, shuningdek psixologik yoki tibbiy ma`lumotli, ijtimoiy ish ko`nikmasiga ega bo`lgan shaxslarga ustunlik huquqi beriladi.



O`zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasining
qaroriga ko`ra quyidagi
shaxslar tarbiyachilar
bo`lishi mumkin emas:

- sud tomonidan huquqiy layoqatsiz yoki huquqiy layoqati cheklangan deb e'tirof etilganlar;



- sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;



- qonun bilan o'ziga yuklangan majburiyatlar zarur tarzda ijro etilmaganligi uchun vasiy (homi) majburiyatlaridan chetlatilganlar;



- agar farzandlikka olish ularning aybi bilan sud tomonidan bekor qilingan bo'lsa, sobiq farzandlikka olganlar;




- sudlanganlar;
- sog'lig'iga ko'ra bola tarbiyasi bo'yicha majburiyatlarni bajarishga qodir bo'lmagan shaxslar.

Tarbiyachining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- - bolalarni tarbiyalash, ularning sog`lig`i, jismoniy, psixik, axloqiy-ma`naviy kamol topishi to`g`risida g`amxo`rlik qilish;
- - oilada axloqiy-ma`naviy va uy muhitini yaratish;
- - o`z majburiyatlarini tarbiyalanuvchilarning huquqlari va manfaatlariga zarar etkazgan holda bajarmaslik;
- - bola uchun o`ziga berilgan hujjatlarning saqlanishini ta`minlash;
- - har olti oyda tibbiy dispanser ko`rigidan o`tish;
- - har ikki yilda O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi huzuridagi Xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institutida qo`shimcha o`qitishning ikki haftalik kursidan o`tish;
- - qonun hujjatlariga va mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.




Pedagoglar, ijtimoiy xodimlar va psixologlar qonun hujjatlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ruhiy va ijtimoiy pedagogik yordam ko`rsatadilar, ular bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilarining ruhiy, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish ishlarini tashkil qiladilar.




3.Turli ijtimoiy qatlam vakillariga psixologik xizmat ko`rsatishning o`ziga xos xususiyatlari

- Psixologik xizmat tizimining Respublika miqyosidagi keng qamrovli ilmiy-amaliy yo`nali ishlarini belgilamay turib Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga molik ijtimoiy-psixologik muammolarni bartaraf etib bo`lmaydi. Shunga muvofiq, barcha sohalardagi hozirgi zamon ilg`or psixologik adabiyotlarga va tadqiqotlarga tayanib psixologik xizmatning asosiy amaliy yo`nalishlari va uning ilmiy-tashkiliy ish jihatlarini o`rganish borasida ma`lum izlanishlar olib borildi. Shuningdek, barcha yo`nalishlar uchun umumiy va juz`iy bo`lgan ijtimoiy psixologik holatlar, vazifalar va tadqiqotlar ko`lami va ularni amalga oshirish yo`llari belgilandi.

Bugungi kunda qator sohalarda psixologik xizmat tizimining joriy etilishi va rivojlantirilishi uchun ijtimoiy ehtiyojlarning nihoyatda ortib borayotganligi va bu ehtiyojlarni qondirishga nisbatan yuqori tashkilotlardan tegishli qarorlar qabul qilinayotganligini alohida qayd etish mumkin.





Psixologik xizmat tatbiqining bugungi holatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har holda bu borada ma'lum ishlar bajarilganligining guvoxi bo'lamiz.

Mazkur ko'rsatmalarga muvofiq Toshkent va Buxoro temir yo'l bo'linmalarida psixologik xizmat joriy qilindi.

Chunonchi, Respublika Temir yo'l Vazirligining 1991 yil 13 avgust` 41/42 buyrug'iga binoan Respublika xalq ta'limi Vazirligining 1992 yil 17 noyabr` N313 raqamli buyrug'i asosida, O'zbekiston Avtomobil transporti davlat aktsionerlik korporatsiyasining 1995 yil 25 noyabr` 07 - 3/139 raqamli maxsus xati asosida joylarda psixologik xizmat tatbiqi joriy qilindi.

-
- Bo`linmadagi har bir ishchi- xodimning o`ziga xos psixologik imkoniyatlari va kasbiy layoqati tarkib topganligining psixologik omillari asosida ish faoliyatini tashkil etishga oid talaygina ishlar qilindi va qilinmoqda. Temiryo`l tizimi bo`yicha ancha muvaffaqiyatli tatbiq etilayogan psixologik xizmatning xarakteri va ahamiyatini tahlil qilish bo`yicha olib borgan kuzatishlarimiz va tadqiqotlarimiz shuni ko`rsatayaptiki, har bir "mashinist" faoliyatida, xodimlarni psixologik tanlov asosida o`z o`rniga quyishda, jamoadagi shaxslararo munosabat muomalasini yuqori saviyaga ko`tarishda har bir xodimning ijtimoiy " MEN " ligini to`g`ri va adekvat tarzda anglashda ancha ijobiy siljishlar ro`y bergan.

Shuningdek, barcha yo`nalishlar uchun umumiy va juz`iy bo`lgan ijtimoiy psixologik holatlar, vazifalar va tadqiqotlar ko`lami va ularni amalga oshirish yo`llari belgilandi.



Bugungi kunda qator sohalarda psixologik xizmat tizimining joriy etilishi va rivojlantirilishi uchun ijtimoiy ehtiyojlarning nihoyatda ortib borayotganligi va bu ehtiyojlarni qondirishga nisbatan yuqori tashkilotlardan tegishli qarorlar qabul qilinayotganligini alohida qayd etish mumkin.

Masalan

- xalq ta`limi tizimida (muassasalarida) psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish borasidagi (1991, 1992, 1995 yil); Ichki ishlar tizimida psixologlar faoliyatini takomillashtirish bo`yicha (1990, 1992, 1994); Temiryo`l transporti tizimida psixologik xizmatni joriy etish va takomillashtirish bo`yicha (1992-94 y); Avtotransport muassasalarida ijtimoiy psixologik xizmatni joriy etish va takomillashtirish bo`yicha (1994-95 y);


- 
-
- Tibbiyot va sog`likni saqlash muassasalarida psixologik faoliyatni takomillashtirish borasida (1994-95y); Sport va sog`lomlashtirish tizimlarida har bir sportchining individual - psixologik holati va imkoniyatlarini o`rganish bo`yicha (1993-95yy.); Qishloq xo`jaligi xodimlari madaniy-maishiy, ruhiy ma`naviy faoliyatini yaxshilash bo`yicha (1994-95-96 yy); Oilaviy hayotni tashkil etish tizimlaridagi ayrim muassasalar (Toshkent, Angren, Buxoro) da psixologik xizmatni takomillashtirish bo`yicha (1989-90-93); Yirik ishlab chiqarish va mehnat jamoalarida psixologik xizmatni takomillashtirish bo`yicha (Toshkent, 1989-90-92 yy.) chiqarilgan qarorlar va belgilangan tadbirlar shular jumlasidandir.

1. Ta'lim tizimi
muassasalarida
psixologik xizmat;

2. Mexnat
jamoalarida
psixologik xizmat;

3. Oilaviy hayotni
tashkil etish tizimi
muassasalarida
psixologik xizmat;

4. Transport
muassasalarida
psixologik xizmat;



6. Ichki ishlar,
huquq- tartibot
tizimi
muassasalarida
psixologik xizmat;

5. Sog'likni saqlash
tizimi
muassasalarida
psixologik xizmat;

7. Sport
muassasalarida
psixologik xizmat



3. Oilaga psixologik xizmat ko`rsatish jarayonida esa turli yoshlardagi va turli toifalardagi oilalarga oilaviy hayot bilan, oiladagi shaxslararo munosabatlar bilan, turli xil ziddiyatlar bilan bog`liq barcha vaziyatlarni tahlil qilishda va ma`lum ijobiy tomonga yo`naltirishda ko`maklashiladi.



4. Oilasizlarga psixologik xizmat ko`rsatish yo`nalishida bo`ydoq erkaklarga va beva ayollarga o`z tengdoshini topish va oilani avaylash va umuman oilaviy hayot tizimining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida ma`lumotlar beriladi va muvaffaqiyatli oila qurish borasida tegishli tavsiyalar berib boriladi.

- 5. Ishonch telefonlari orqali oilalarga yoki oiladagi shaxslarga psixologik xizmat ko`rsatish. Bunda, asosan ishonch telefonidagi ma`lumotlar asosida va barcha dalillarni sir tutgan holda ma`lumotning mazmunidan kelib chiqib tegishli psixologik tadbirlar olib boriladi.



- Ushbu yo`nalishlar bo`yicha bir necha yillar davomida Toshkent shahridagi "Semurg`" baxt uyi va Angren shahar "Baxt" uyi qoshidagi psixologik xizmat ko`rsatish markazi xodimlari tomonidan olib borilayotgan ishlar, tajribalar va tadbirlarni alohida qayd etish mumkin. Oilaviy hayot tizimiga bo`lgan psixologik xizmat yo`nalishlarining bugungi holatini tahlil qilar ekanmiz, bu borada maxsus ilmiy izlanishlar asosida olib borilayotgan amaliy tadbirlarni alohida qayd etishga to`g`ri keladi.




O`zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holatiga ilmiy-tashkiliy nuqtai nazaridan baho berar ekanmiz, bu borada talaygina yutuqlar, kamchiliklar va tez orada bartaraf etilishi muqarrar bo`lgan muammolarga duch kelamiz.

Yutuqlarimizning mohiyati quyidagicha:

- ▶ 1. O`zbekistonda psixologik xizmatni joriy etish, boshqarish va rivojlantirish uchun ma`lum va etarli darajadagi ijtimoiy va ilmiy-tashkiliy asoslar mavjud. Bular jumlasiga, "O`zbekiston Respublika xalq ta`limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqidagi"Nizom"ning 5.04.1996 yilda rasmiy tarzda tasdiqlanishi.



2. " Nizom" asosida olib borilayotgan nazariy-
ilmiy va amaliy uslubiy ishlar, tajribalar
ko`laming tobora kengayib
borayotganligi.
3. Iqtidorli bolalarni tanlash va tarbiyalash
Markazining tashkil etilganligi va uning
ma`lum psixologik mezonlar asosida
faoliyat ko`rsatayotganligi.
4. Oilaga psixologik xizmat ko`rsatish
bo`yicha talaygina
tajribalarning to`planganligi va shu
tajribalar asosida ilmiy-amaliy
tavsiyalarning ishlab chiqilganligi.



5. Transport tizimida ma`lum tajribalarning to`planganligi.



6. Qator olimlar guruhi tomonidan ta`lim va oila tizimlarida psixologik xizmatni rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlarning olib borilayotganligi va shu izlanish natijalari qisman bo`lsa-da amaliyotda qo`llanilayotganligi.



7. Respublika ichki ishlar tizimida, sport va sog`lomlashtirish tizimida va ayrim yirik ishlab chiqarish korxonalarida ma`naviyat va ma`rifat bilan bir qatorda psixologik xizmatga ham jiddiy e`tibor qaratilayotganligi kabi holatlarni bugungi kunda mamnuniyat bilan qayd etish mumkin.

**E'TIBOR-
LARINGIZ
UCHUN
RAXMAT**

